XORAZM VILOYATI TUMANLARIDA EKSPORT SAMARADORLIGI: STOXASTIK CHEGARAVIY TAHLIL (SFA) ASOSIDAGI EMPIRIK YONDASHUV	887
Fozil Xolmurotov	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ БЕДНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПОДХОДЫ И НАЦИОНАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА.....	900
Мамаризоев Жахонгир Isoхонович	
EKOLOGIK VAZIYAT VA AHOLI SALOMATLIGINING PROGNOZ KO'RSATKICHLARI	905
Egamqulov Husniddin Erkaboyevich	
CHO'L HUDUDLARIDA TURISTIK RESURLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	911
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Mavlonov Ahmadjon Muhammadovich	
КОНЦЕПЦИЯ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ИЗМЕРЕНИЯ ЭФФЕКТОВ ЗАНЯТОСТИ В ЭКОЛОГО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЭКОНОМИКЕ	918
Сагидуллин Фарид Радикович	
ТЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В СФЕРЕ ПРОДВИЖЕНИЯ И СБЫТА ТОВАРОВ И УСЛУГ В ИНДУСТРИИ ГОСТЕПРИИМСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	927
Бабаджанова Лола Шопулатовна	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	935
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich	
TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI	943
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
TA'LIM KLASSTERLARI KONTEKSTIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA STRATEGIK YECHIMLARI: TRIPLE HELIX MODEL ASOSIDA TAHLIL.....	947
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI.....	954
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	960
Sirojiddinov Kamoliddin	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI	976
Abdusattorov Abdusamat Sobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna , Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNINI VA AHAMIYATI	995
Temirov Azizbek Voiti o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1009
Шакаров Зафар Гаффорович	
TURIZM KLASTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI.....	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES.....	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH.....	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdammovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI.....	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abdulkarimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH

B.B.Seilbekov

Innovatsion texnologiyalar universiteti
“Moliya va iqtisodiyot” kafedrası dotsenti,
iqtisodiyot fanlari nomzodi
E-mail: seilbekov64@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida fermer xo'jaliklarining iqtisodiy va ekologik samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Qishloq xo'jaligida resurslardan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish hamda ishlab chiqarishning barqaror modelini yaratish zarurati asoslab beriladi. Shuningdek, fermer xo'jaliklarining faoliyatini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni tatbiq etish va davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining iqtisodiy natijalarga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqotda O'zbekiston, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida yashil iqtisodiyot konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi samaradorligi, barqaror rivojlanish, resurslardan samarali foydalanish, ekologik boshqaruv, raqamli texnologiyalar.

Abstract. The article analyzes the issues of increasing the economic and environmental efficiency of farms based on the principles of a green economy. The necessity of rational use of resources in agriculture, the introduction of renewable energy sources, and the creation of a sustainable production model is substantiated. The impact of modernization of farms, the introduction of digital technologies, and state support mechanisms on economic results will also be studied. The study analyzes the possibilities of implementing the concept of a green economy in practice in the conditions of Uzbekistan, in particular, the Republic of Karakalpakstan.

Key words: green economy, farms, agricultural efficiency, sustainable development, efficient use of resources, environmental management, digital technologies.

Аннотация. В статье анализируются вопросы повышения экономической и экологической эффективности фермерских хозяйств на основе принципов зеленой экономики. Обосновывается необходимость рационального использования ресурсов в сельском хозяйстве, внедрения возобновляемых источников энергии и создания устойчивой модели производства. Также будет изучено влияние модернизации деятельности фермерских хозяйств, внедрения цифровых технологий и механизмов государственной поддержки на экономические результаты. В исследовании анализируются возможности реализации концепции зеленой экономики в Узбекистане, в частности, в Республике Каракалпакстан.

Ключевые слова: зеленая экономика, фермерские хозяйства, эффективность сельского хозяйства, устойчивое развитие, эффективное использование ресурсов, экологическое управление, цифровые технологии.

KIRISH

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi sektori nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki ekologik barqarorlikni saqlash, resurslardan oqilona foydalanish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etish masalalarida ham muhim



ahamiyat kasb etmoqda [1]. Yashil iqtisodiyot prinsiplariga asoslangan fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini tatbiq etish va resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy va ekologik samaradorlikni oshirish imkonini beradi [2].

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekistonning ekologik jihatdan nozik hududlaridan biri bo'lib, yer va suv resurslari chegaralanganligi, iqlim sharoitlari va suv ta'minoti masalalari fermer xo'jaliklarining samarali faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [3]. Shu sababli hududda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, fermer xo'jaliklarini modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — Qoraqalpog'iston sharoitida yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida fermer xo'jaliklarini samarali rivojlantirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini aniqlash. Tadqiqot vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: qishloq xo'jaligi sektorining ekologik va iqtisodiy holatini tahlil qilish; fermer xo'jaliklarida yashil iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etishning samaradorligini baholash; fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati va hududiy dasturlarni o'rganish; hudud sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligini rivojlantirish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etish bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar mavjud: "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasini iqlim o'zgarishiga moslashtirish strategiyasi" (2022) [4]; Hududiy va normativ-huquqiy asoslarni hisobga olgan holda, tadqiqot fermer xo'jaliklarining barqaror rivojlanishini oshirish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot va fermer xo'jaliklarining samarali rivojlanishi masalalari so'nggi yillarda nafaqat mahalliy, balki xalqaro olimlar tomonidan ham keng o'rganilgan. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligida ekologik barqarorlik va resurslarni samarali boshqarish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi.

Porter va van der Linde (1995) yashil iqtisodiyot tamoyillarini ishlab chiqarish raqobatbardoshligini oshirish vositasi sifatida tahlil qilgan [5]. Ular ekologik va iqtisodiy maqsadlarni uyg'unlashtirishning strategik ahamiyatini ko'rsatgan. Shuningdek, OECD (2020) hisobotlarida qishloq xo'jaligida yashil texnologiyalarni joriy etish orqali suv va energiya resurslarining samaradorligini oshirish bo'yicha xalqaro tajribalar tahlil qilingan [6].

Markaziy Osiyo mamlakatlarida yashil iqtisodiyot va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish masalalari ham dolzarb hisoblanadi. Masalan, Tojikiston, Qozog'iston va Qirg'izistonda fermerlar uchun ekologik sertifikatlangan ishlab chiqarish, suv resurslaridan samarali foydalanish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu tajribalar hududiy sharoitlarni hisobga olgan holda, O'zbekiston va ayniqsa Qoraqalpog'iston sharoitida amaliyotga tatbiq etilishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi tadbirkorligi masalalari bo'yicha bir qator ishlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Jumladan, "Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik sub'ektlarining rivojlantirish istiqbollari" maqolasida [2] fermer va tadbirkorlik sub'ektlarini modernizatsiya qilish, resurslarni samarali taqsimlash va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ta'siri batafsil tahlil qilingan. Ushbu ish fermer xo'jaliklarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

Shuningdek, "Qoraqalpog'iston Respublikasida oilaviy xo'jaliklar kooperatsiyasini rivojlantirishga sinergetik yondoshuv" ilmiy maqolad [7] hududiy sharoitlarda kooperatsiya shakllarini rivojlantirish, fermerlar o'rtasida hamkorlik va resurslarni optimal taqsimlash imkoniyatlari o'rganilgan. Bu tadqiqotlar hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda yashil iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etishda amaliy yo'nalishlarni belgilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, Jahon Banki va FAO tomonidan e'lon qilingan hisobotlar, qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish tajribalarini ko'rsatadi [8,9]. Bu ilmiy manbalar, nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ekologik barqarorlik va hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

Natijada, xalqaro, Markaziy Osiyo va O'zbekiston olimlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar fermer xo'jaliklarini yashil iqtisodiyot sharoitida rivojlantirishning nazariy asoslarini va amaliy yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Ularning tahlili maqolaning asosiy maqsadi — Qoraqalpog'iston sharoitida fermer xo'jaliklarining barqaror va samarali rivojlanishini o'rganishga mustahkam ilmiy asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda fermer xo'jaliklarining yashil iqtisodiyot sharoitida samarali rivojlanishini o'rganish uchun sistemali yondoshuv asosida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanilgan.



Birinchidan, sistemali tahlil yordamida qishloq xo'jaligi sektorining iqtisodiy va ekologik holati, resurslardan foydalanish samaradorligi va hududiy xususiyatlar o'rganilgan. Bu metod tadqiqot ob'ektini kompleks ko'rinishda tahlil qilish, ichki va tashqi omillar o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, solishtirma tahlil metodidan foydalangan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoiti xalqaro va Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasi bilan solishtirilgan. Bu yondoshuv hududning o'ziga xos iqlim va resurs sharoitlarini hisobga olgan holda eng samarali amaliyotlarni aniqlashga yordam berdi.

Uchinchidan, statistik tahlil yordamida Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan rasmiy ma'lumotlar asosida resurslar ishlatilishi, ishlab chiqarish hajmi va ekologik indikatorlar baholangan.

Shuningdek, ekspert baholash va intervyular metodlari tadqiqotda qo'llanilib, hududdagi fermer xo'jaliklari rahbarlari va mas'ul mutaxassislar fikrlari yig'ilgan. Bu metodlar amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda va hududiy xususiyatlarni hisobga olishda muhim rol o'ynadi.

Natijada, tadqiqot metodologiyasi turli ilmiy metodlarni uyg'unlashtirgan holda, Qoraqalpog'iston sharoitida yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida fermer xo'jaliklarining samarali rivojlanishi bo'yicha ilmiy asosli va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari Qoraqalpog'iston sharoitida fermer xo'jaliklarining yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida samarali rivojlanishini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot ikki asosiy yo'nalishda olib borildi: ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash. Statistik ma'lumotlar va hududiy ekspertlar intervyulari natijasida raqamli texnologiyalar va modernizatsiya tadbirlari joriy etilgan fermer xo'jaliklarida hosildorlik o'rtacha 15–25% ga oshgani aniqlangan. Shu bilan birga, suv va energiya resurslaridan foydalanish samaradorligi ham sezilarli darajada yaxshilanga. Fermerlar raqamli texnologiyalar yordamida resurslarni tejash va ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lishgan.

Fermer xo'jaliklarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, yerni oqilona ishlatish va agrotexnologik tadbirlarni qo'llash ekologik barqarorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Tahlil shuni ko'rsatdiki, ekologik barqarorlik indikatorlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan xo'jaliklarda chiqindilar hajmi va suv sarfi kamaygan. Fermerlar ekologik sertifikatlash va resurslarni optimallashtirish bo'yicha ilg'or tajribaga ega bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlarida yashil iqtisodiyot prinsiplarini tatbiq etmoqda.

Qoraqalpog'iston hududida fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat dasturlari va grantlar samarali ekanligi aniqlangan. Qo'llab-quvvatlangan xo'jaliklarda yangi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish osonlashgan. Shu orqali davlat siyosati hududda yashil iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etishning samaradorligini oshirmoqda (1-Jadval).

1-Jadval. Fermer xo'jaliklarida samaradorlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Raqamli texnologiyalar joriy etilgan xo'jaliklar	Raqamli texnologiyalar joriy etilmagan xo'jaliklar	O'zgarish (%)
Hosildorlik (tonna/ga)	5,2	4,2	+23,8%
Suv sarfi (m ³ /ga)	320	400	-20,0%
Energiya sarfi (kWh/ga)	150	200	-25,0%
Ekologik chiqindilar (kg/ga)	12	20	-40,0%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, raqamli texnologiyalar joriy etilgan xo'jaliklarda ishlab chiqarish samaradorligi oshgan, suv va energiya sarfi hamda ekologik chiqindilar kamaygan. Bu natijalar hududda yashil iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etishning samaradorligini tasdiqlaydi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalarni tatbiq etgan fermer xo'jaliklarida resurslardan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshgan. Jumladan, sug'orish tizimlarining avtomatlashtirilishi suv sarfini o'rtacha 18–22% ga kamaytirgan, bu esa suv resurslarining oqilona ishlatilishini ta'minlagan [1]. Shu bilan birga, energiya samaradorligi indikatorlari ham yaxshilangan; quyosh panellari va kichik gidroenergetik tizimlar yordamida elektr energiyasi xarajatlari o'rtacha 20–25% ga kamaygan.

Fermer xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligi nafaqat ishlab chiqarish hajmi, balki daromad ko'rsatkichlari bilan ham o'lchanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida ishlab chiqarish



olib borayotgan xo'jaliklar daromadi raqamli texnologiyalarni joriy etmagan xo'jaliklar bilan solishtirganda o'rtacha 15–20% yuqori. Bu esa fermerlar uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi.

Ekologik jihatdan qaraganda, chiqindilarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish hududda barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishga yordam bermoqda. Masalan, organik o'g'itlar va agrotexnologik tadbirlarni qo'llash natijasida tuproq unumdorligi saqlanib qolgan va kimyoviy moddalar sarfi kamaygan [4]. Shu bilan birga, fermerlar orasida ekologik sertifikatlash va yashil sertifikatlarni olish tajribasi ortib bormoqda, bu esa ularning mahsulotlari bozorda raqobatbardosh bo'lishiga xizmat qilmoqda.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot tamoyillari va raqamli texnologiyalarni birgalikda tatbiq etish, fermer xo'jaliklarining nafaqat iqtisodiy, balki ekologik samaradorligini oshirishga imkon beradi. Bu esa hududda barqaror rivojlanish modelini yaratish va qishloq xo'jaligi sektorini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Qoraqalpog'iston sharoitida yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida fermer xo'jaliklarini rivojlantirish nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini, balki ekologik barqarorlikni oshirishga ham xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, suv va energiya resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek, agrotexnologik innovatsiyalarni qo'llash natijasida hosildorlik o'rtacha 15–25% ga oshgan, suv va energiya sarfi esa 20–25% ga kamaygan.

Fermer xo'jaliklarida raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan sug'orish tizimlarini keng joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish mumkin. Bu nafaqat hosildorlikni oshiradi, balki suv va energiya resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etish, jumladan quyosh panellari va kichik gidroenergetik tizimlardan foydalanish, ishlab chiqarishning ekologik barqarorligini mustahkamlaydi va energiya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi.

Ekologik sertifikatlash va yashil sertifikatlarni olish tizimini kengaytirish orqali mahsulotlarning bozordagi raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Bu nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro bozorlarda ham fermer xo'jaliklarining mahsulotlari uchun ustunlik yaratadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan hududiy dasturlarni yanada samarali tashkil etish va fermerlar uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirilgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, tadbirkorlarni ilg'or tajribalarni tatbiq etishga rag'batlantiradi.

Bundan tashqari, fermerlar orasida tajriba almashuvi va kooperatsiyalashuvni rivojlantirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanish modelini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu yo'l bilan, hududdagi qishloq xo'jaligi sektorida innovatsion va yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida samarali tizim yaratiladi, bu esa nafaqat iqtisodiy, balki ekologik foydani ham ta'minlaydi

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Porter M.E., van der Linde C. Green and Competitive: Ending the Stalemate. Harvard Business Review, 1995.
2. Мамбетназаров Б. Қишлоқ хўжалигида тadbirkorлик субъектларининг ривожлантириш истиқболлари // scienceproblems. Uz Учредители: ООО "Scienceproblems team". – 2024. – Т. 3. – №. 12/1.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.11.2020 yildagi PQ-4889-son «2020 — 2023-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori. <https://lex.uz/docs/-5100705>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025-yildagi PF-16-son «O'zbekiston — 2030» strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida» Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/-7369703?ONDATE=02.06.2025>.
5. Porter M.E., van der Linde C. Green and Competitive: Ending the Stalemate. Harvard Business Review, 1995. https://www.academia.edu/2917976/Green_and_competitive_ending_the_stalemate.
6. OECD. Green Growth in Agriculture: International Experiences. OECD Publishing, 2020.
7. Mambetnazarov B. B., Allayarov S. S. Qoraqalpog'iston respublikasida oilaviy xo'jaliklar kooperatsiyasini rivojlantirishga sinergetik yondoshuv // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 10. – С. 589-595.
8. FAO Regional Office for Central Asia. Sustainable Agriculture and Water Management in Central Asia, 2021.
9. UNDP Central Asia. Green Economy in Central Asian Countries: Policies and Practices, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>